

O'SMIRLARDA HISSIY - EMOTSIONAL HOLATLAR PSIXODIAGNOSTIKASI

Qahhorova Sayyora Bahodirovna

Xalqaro innovatsion universitet "Psixologiya va jismoniy ma'daniyat" kafedrası o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14866184>

Annotatsiya. O'smirlik, jizzakilik, tirishqoqlik, cho'rtkesarlik, bolalar, O'smirlik yillari, motivatsiya, ta'lim - juda keng ma'noga ega.

Kalit so'zlar: Ota-onalar, kichkintoy, muammolar, "men"lik, mustaqil qaror, ko'nikma va malakalar.

Abstract. Adolescence, intelligence, diligence, perseverance, children, Adolescence, motivation, education - has a very broad meaning.

Keywords: Parents, toddler, problems, "I", independent decision, skills and qualifications

Аннотация. Подростковый возраст, интеллект, трудолюбие, упорство, дети, Подростковый возраст, мотивация, образование - имеют очень широкое значение.

Ключевые слова: Родители, малыши, проблемы, «Я», самостоятельное решение, навыки и умения.

O'smirlik yillari – ota-onalar uchun ham, bolalar uchun ham murakkab davr. Bu yoshda farzandlar o'z fikrini eng to'g'ri deb hisoblashadi. Ota-onalar ham kichkintoy deb hisoblab yurgan bolasining endi o'z fikrini, o'z qarashlarini ayon qilishlarini qabul qilishlari qiyin bo'ladi. Ayniqsa, faqat bolasining g'amida yashaydigan onalarda bu jarayon qiyin kechadi. Bunda ular o'zlarini xuddi endi bolasiga keraksiz bo'lib qolganday his qilishlari mumkin. Ota-onalar uchun farzandlar doimiy ravishda qarorlarini bajarib yurishlariga o'rganib qoladilar. Shu sababli ham ma'lum vaqtga kelib, bolalarning ota yoki onaning qaroriga qarshi chiqishi ularda g'azab uyg'otishi mumkin.

Bolalarda "men"lik shakllarining ilk uchqunlari, ulardagi jizzakilik, tirishqoqlik, cho'rtkesarlik, o'z fikrlarini himoya qilish bilan baholandi. Bolalar ham o'zlarini aqlan katta bo'lganday his qilishsa-da, moddiy va jismoniy jihatdan ota-onaga tobe bo'lib qolaveradi. Barcha tushunmovchiliklar shundan kelib chiqadi. Ota-ona hamma narsani muhayyo qilishi bolada hech narsaga intilmaslikni keltirib chiqaradi. Barcha muammolarini ota-onasi hal qilib berishi – kelajakda uning hayotini ham ular boshqarishiga zamin yaratadi. Oqibatda ular kelgusida boshqalarning xohishlari bilan yashashga o'rganib qolib, qachondir afsuslanishadi.

Bola o'smirligida mustaqil qaror qabul qilishni o'rganmasa, katta hayotda ham uni kimdir boshqarishi kerak bo'ladi. O'smirlik bolada "o'z men"ligining shakllanishi

natijasida alohida shuning uchun o'smirlarda kelajak haqida o'ylash, to'g'ri qaror qabul qilish uchun imkon va tushuncha berishda yordam ko'rsatish kerak. «Sen kelajakda nima qilmoqchisan?

Kim bo'lmoqchisan?» kabi savollar bolani o'ylashga majbur qiladi. Birdaniga javob bermasligi mumkin, ammo vaqt o'tib bu haqda o'ylab ko'radi. Ularga o'zi yoqtirgan biror mashhur shaxslarni namuna qilib ko'rsatish ham unga motivatsiya berishi mumkin. Aslida ota-ona bolaga hamma narsani yaratib bermasligi, u nimagadir intilishi, orzu qilishi uchun imkon qoldirishi kerak.

Nimagadir o'z mehnati bilan erishsa, u uchun qadrlı bo'ladi. Ayniqsa o'smirlik davridagi o'smirlarda ko'plab illatlar bilan birga o'z shaxsining qadr - qimmatı uchun kurashishni boshlaydi.

Ta'lim - juda keng ma'noga ega bo'lib, u bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, o'rganish, o'rgatish jarayonidir. Bu ta'rif hozirgi zamon ta'limi uchun yetarli emas. Chunki hozir mustaqillik davrida ta'lim o'zining mazmuni bilan o'quvchilarga bilim, ko'nikma va malakalar berish bilan birga, o'quvchilarni hozirgi zamon ruhida milliy kadrlar, jahon madaniyati va maorifining ilg'or g'oyalaridan oqılona foydalanib tarbiya beruvchi, bola shaxsini rivojlantiruvchi, uni mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, ilmiy tushuncha va izlanishlarga layoqatli qiluvchi ta'lim hamdir.

O'smirlik davrida ta'lim jarayoniga bo'lgan layoqat va o'quv motivatsiyasini oshirishda shaxsning individual psixologik xususiyatlarni o'rganishni tashxis qilish, u bilan xarakter tipologiyasi va temperamentiga muvofiq tarzda ishlash bugungi kunda psixolog oldida turgan asosiy vazifalardan biriga aylanmoqda. O'qish jarayoni - o'quvchining o'ziga xos xususiyatlariga ham, uning psixik rivojlanishining (aqlli, irodaviy jihatdan) individual tavsifnomasiga, unda o'qishga nisbatan qaror topgan munosabatlariga, uning qiziqish-havaslariga bog'liqdir. Yoshligida yetarlicha mehr ko'rmagan bolalar o'smirlikda jinoyat qilishga ko'proq moyil bo'lishadi.

Ular buni xohlashmasa ham, o'zlari sezmagan holda ota-onalari, atrofdagilar va umuman dunyo bilan o'chakishib jinoyat qiladi. Bunday holatlarda psixologlar bilan ishlash yordam berishi mumkin. Bunday vaziyatda ota-onalar bolaga ta'sir o'tkazmoqchi bo'lishlari to'g'ri bo'lmaydi, chunki boladagi bu yaralar ularning xatosi tufayli yuzaga kelgan. Shunday tushunmovchilik holati sodir bo'lganda o'qituvchi bilan vazmin gaplashish va farzandining ruhiyati haqida tushuntirish, uning sinfdagi obro'sini tiklash, o'ziga ishonchini orttirish uchun maslahatlashish kerak bo'ladi.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatni yaxshilash uchun bolani o'sha o'qituvchiga qo'shimcha darslarga berish ham yaxshi natija berishi mumkin. Bu bilan bola yoqtirmagan odamlari bilan ham munosabat qurish mumkinligi, hamma narsaga imkon topish mumkinligini anglaydi. Xulosa shundan iboratki o'smirlarga katta odamlarga o'xshash muomila qilinishi, fikrlarini hurmat bilan eshitish ularda g'urur tuyg'usini shakllanishiga sabab bo'ladi.

REFERENCES

1. Abdilkhakimovna, Mamaradjabova Bogzoda. "Influence of self-consciousness of a person on family relationships and its psycho-correction." (2022). 2. JUREVA, S., and B. MAMARADJABOVA. "The degree to which a person feels happy in the family." JOURNAL OF CRITICAL REVIEWS 7.5 (2020): 1873-1875.
2. Климов Е.А. Психология профессионала. Москва-Воронеж,1996. Mamaradjabova Bogzoda. "Psychological Mechanisms of the Influence of SelfAwareness Strategy on the Development of Children's Emotions in the Family." Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science 2.3 (2024): 229-232.
3. Mamaradjabova, B. A., and Allamov Jasur. "JAMOANI SHAKLLANTIRUVCHI TRENING MASHG 'ULOTLARINING NAZARIY ASOSLARI." E Conference Zone. 2023.
4. Мамаражабова, Богзода Абдилхакимовна. "Роль сознания в деятельности человека." Проблемы науки 6 (42) (2019): 106-107. 7. Mamaradjabova, Bogzoda. "Self-awareness strategy." Результаты научных исследований в условиях пандемии (COVID-19) 1.03 (2020): 145-147.
5. Mamaradjabova, B. "SELF-AWARENESS STRATEGY."